Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

"KI BAYTIM SATRI IKKIDUR: BIRI DILXUSH, BIRI DILXUN..." (Erkin Vohidov ijodi misolida)

Saodat Eshpulatova*
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Jahon adabiyoti kafedrasi dotsenti v.b.,PhD
✉ saodat69eshpulatova@gmail.com

ANNOTATSIYA

XX asr o'zbek she'riyatining ko'zga ko'ringan siymosilaridan biri, o'zining o'lmas she'rlari, g'azallari va hajviy she'rlari hamda salmoqli tarjimalari bilan o'zbek zamonaviy adabiyoti rivojiga hissa qo'shgan O'zbekiston Qahramoni, shoir Erkin Vohidov she'rlari va unda tasvirlngan badiiy vositalar, she'r go'zalligi, so'z qo'llash mahorati va shu kabilar haqida so'z boradi. Shoir ijodining badiiy qiymati, tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan. Shu bilan birga shoir ijodining o'zbek adabiy munaqqidlari tomonidan tahlil qilingan she'rlari ham keng o'rganilgan.

Kalit so'zlar

dilxush, dilxun, kamtarlik, qasida, tazod, qofiya, vazn, tarjima, tahlil, tanqid, she'riyat.

DOI: 10.5281/zenodo.21743600

KIRISH

XX asr o'zbek she'riyatini Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf singari o'nlab shoirlar ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hech bir muvaffaqiyatga osonlik bilan erishib bo'lmaganiday, bu shoirlar xalq hurmatiga, el e'tiboriga barcha to'siqlarni yengib erishishgan. Bu bilan ular o'zlarining hayotga, badiiy ijodga bo'lgan munosabatlari-yu qarashlarini boyitishga muvaffaq bo'lishgan.

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovda o'tkir ijodiy kuch-qudrat mavjudligini uning she'riyatida bemalol ko'rish mumkin..."Yoshlik devoni"ga kiritilgan eng yaxshi she'rlaridan biri "O'zbegim" qasidasida xalqimiz ulug'ligi, buyukligi tarannum etiladi. "Tirik sayyoralar"dagi deyarli barcha she'rlarida, xususan, "Arslon o'ynatuvchi" bilan "Biz ishlayapmiz"da lirik qahramonning kechinmalari, xatti-harakatlari, tashvish-u dardlari, kuzatishlari barcha murakkabliklari bilan olinadi, poetik tahlildan o'tkaziladi.

"Erkin Vohidov ko'plab xorij ijodkorlari, jumladan, Aleksandr Blok, Aleksandr Tvardovskiy, Friedrix Schiller, Johann Wolfgang von Goethe, Lesya Ukrainka, Mixail Svetlov, Muhammad Iqbol, Rasul Hamzatov, Sergey Yesenin hamda Silva Kaputikyan asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Xususan, shoir 1974-yil Gyoetening „Faust" asarini o'zbekchaga o'girgan. Sergey Yesenin she'rlarini ayniqsa yuksak mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan"[1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin_Vohidov].

"El ustozim, men esa tolib, so'z durlarin termoqdir ishim, Odamlarning o'zidan olib, odamlarga bermoqdir ishim", deydi Erkin Vohidov va bu fikr umuman badiiy ijod, she'riyatning mohiyatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi, ammo shoirning ishi faqat odamlardan olib, odamlarning o'ziga berish bilan cheklanmaydi. Odamlardan olingan fikr-g'oyalarga o'zidan nimanidir qo'shib berish talab qilinadi. Asarning qadr-qimmati mana shu o'zidan qo'shilgan fikr va tuyg'ularning qay darajada salmoqli, original, yangi mazmunni tashkil etishiga qarab aniqlanadiki, ba'zan Erkin Vohidov buni esdan chiqarib qo'yayotganga, odamlardan olganlarini hech qanday o'zgarishsiz o'z holicha ifodalayotganga o'xshaydi. Shuning uchun uning ko'pgina she'rlari

qiziqish bilan ravon o‘qiladi, keng kitobxonlar ommasining diqqatini tortadi, biroq xotiramizda o‘chmas iz qoldirmaydi, kashfiyot bo‘lib jaranglamaydi… Uning “Hozirgi yoshlar” kitobidagi eng yaxshi she’rlarida zamonaviy yigit-qizlarimizning, qishloq mehnatkashlarining, ishlab chiqarish ilg‘orlarining ezgu-o‘ylari, go‘zal tuyg‘ulari tarannum etiladi, istiqbol zaminini yaratayotgan qahramonlarga tasannolar aytiladi: “Taningda kamtarin a’zo bu qo‘llardir, bu qo‘llardir, mudom mehnat uchun paydo bu qo‘llardir, bu qo‘llardir…o‘zi oltin, ishi tillo bu qo‘llardir, bu qo‘llardir” [2.170-171]

yoki

“Sobit-u sayyorada
Inson o‘zing, inson o‘zing.
Mulki olam ichra bir
Xoqon o‘zing, sulton o‘zing.
Sobit o‘z ma’vosida,
Sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrosida
Karvon o‘zing, sarbon o‘zing.
Shams- dil taftingdadur,
Sayyoralar kaftingdadur,
Keng jahon zabtingdadur,
Bog‘bon o‘zing, posbon o‘zing” [3.35-36]

kabilarda bularni yaqqol ko‘rish mumkin.

“Yoshlik devoni”dagi bir qancha she’rlar ham fazilatlari bilan ko‘zga tashlanib turadi. Dastavval, “Davron yuki”, “Kiprigingdan o‘q uzib” she’rlarini nazarda tutyapman, deydi munaqqid Norboy Xudoyberganov Erkin Vohidov she’rlarini tahlil qilish jrayonida. Ulardan birida muhabbat haqida, ikkinchisida insonning zamon, haqiqat oldidagi burchi to‘g‘risida bahs yuritiladi. Birinchisida lirik qahramonning yor vasliga yetish borasida chekkan iztiroblari ifodalanadi, sevgining noyob va nodir fazilatlari ulug‘lanadi, shoir bizni baxt-saodat, muhabbat tantanasi haqida o‘yga toldiradi… Har ikkala she’rda ham bayonchilik bor, lekin ular hukmronlik qilmaydi. Mavzu she’riy vosita va uslub orqali tadqiq etilmasa, yuksak natijaga erishish mumkin emas. To‘g‘ri, “Yoshlik devoni”dagi deyarli barcha she’rlarda ravonlik, musiqiylik mavjud, ularni o‘qiganingizda satrlarga “qoqilib”, ”surilib” ketmaysiz, shuning o‘zi ham muallifning fazilati emasmi?!” [4.136-137]

Erkin Vohidov ijodini ko‘pgina munaqqidlar tahlil qilishgan. Jumladan, Ibrohim G‘afurov tahlillariga Norboy Xudoyberganov e’tiroz bildirgan joylari ham yo‘q emas. Hamma she’r ham har doim kamchiliksiz yozilavermasligini, har qanday yetuk ijodkor ham qayerdadir xato qilishi mumkinligini aytadi va Ibrohim G‘afurovning bu boradagi tahlillarini tanqid qiladi. Munaqqidning “Yoshlik devoni”dagi ravonlikka, musiqiylikka mahliyo bo‘lib, g‘oyaviy-badiiy salmoqqa yetarli e’tibor bermaganini tanqid qiladi. Shunday o‘tkir didli, qobiliyatli tanqidchining “Yoshlik devoni”da hech qanday qusur ko‘rmasligi mumkin emasligini, devonning faqat ijobiy tomonlariga e’tibor berilmaganini ta’kidlaydi.

U quyidagilarni uqtiradi: ”Falsafiy g‘azallar ichida “Davron yuki”, “Zamon”, “O‘zbegim”, “Xayol” singarilar zamonaviy ruhni, davr mohiyatini ilg‘ab olishi, chuqur ifodalab berishi bilan ajralib turadi. Shoir bunday g‘azallarida tarixiy masofalarni nozik mantiq bilan ulaydi, tengsiz nisbatlarni chiroyli qiyosga olib keladi va shu orqali insonning ulug‘ligini, aql-zakovatning qudratini namoyish qiladi.

Garchi bu fikrlar to‘la dalillanmagan bo‘lsa-da, bizda ishonch tuyg‘usini tug‘diradi, negaki, “Davron yuki”, “Zamon”, “O‘zbegim”ni o‘qir ekanmiz, tanqidchi mulohazalarida haqiqat mavjudligi anglashiladi. Biroq Ibrohim G‘afurov “Yoshlik devoni”dagi she’rlarning qadr-qimmatini haqqoniy mezon bilan aniqlash o‘rniga ularni faqat ulug‘lash, ma’qullashni afzal ko‘rgan. Axir, “Yoshlik devoni”dagi bir qancha jiddiy nuqsonlar haqida lom-mim deyilmay, g‘oyaviy-badiiy zaiflik, yuzakilikning e’tibordan soqit qilinishini boshqacha tushuntirish mumkinmi?!” [3. 137-138]

Olim xoh u tajribali, taniqli ijodkor bo‘lsin, xoh yosh ijodkor, hammasining asariga xolisona yondashadi, tajribali ijodkorning asari har doim ham kamchilikdan xoli bo‘lmasligini eslatadi. Va bunday holat tanqidchilar ijodida ham uchrab turishini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

Savolga javob axtarish maqsadida “Rubobim tori ikkidur” she’rini ko‘rib chiqadi munaqqid:

Rubobim tori ikkidur

Biri quvnoq, biri mahzun.

Shundan so‘ng o‘quvchiga, tasavvur qiling, rubob torlaridan biri shodlik, baxt-saodat haqida kuylasa-yu, biri g‘am-anduh, alamlarni, qayg‘uni kuylayapti, deydi. Bu bilan hayotdagi qarama-qarshiliklar, murakkabliklarni bildirishini ta’kidlaydi va o‘quvchini keyingi satr sari yetaklaydi:

Ki baytim satri ikkidur:

Biri dilxush, biri dilxun…

Olim shunga ajablanadiki, dastlabki baytda rubob tori haqida aytilgan fikr qanday qilib she’riy satrga ko‘chib qoldi. Buning sirini keyingi misralarda ochilib qolar, deb umid qiladi:

Nigorim chashmi ikkidur,

Biri yag‘mo, biri jodu.

Bu jodudan ikki ko‘zim

Biri Sayhun, biri Jayhun”.[5.164]

Tanqidchi dastlab rubob torlari, she’r bayti bir yoqda qolib, sevikli yorning ko‘zlariga ta’rif beryapti, deydi. Ko‘z nima uchun joduga, yag‘moga, Jayhunga va Sayhunga o‘xshatilyapti, deydi. Yana boshqa o‘xshatishlarni ham keltirib o‘tadi: “Jahonda ikki dilbarning biri sensan, biri Laylo”, “ Jahonda ikki yulduz bor, biri sensan, biri Zuhro”, “Jahonning mehri ikkidur, biri sensan, biri oftob…” kabi o‘xshatishlarni keltiradi va o‘z uslubiga xos ravishda savol qo‘yadi: Kim ta’riflanyapti? Bunda biror shaxs qiyofasi gavdalantirilmayapti-ku, deb e’tiroz bildiradi. Mulohazalarning mavhumligini, umumiyligini ta’kidlaydi. Ular shoirni ham, uning dilbarini ham kitobxon ko‘z oldida jonlantirib berolmasligini, ammo misralarning ravon, silliq o‘qilishini tan oladi. Lekin qanday fikr himoya qilinayotgani mavhumligicha qolganini aytadi.

Norboy Xudoyberganov Erkin Vohidov ijodini tahlil qilar ekan, u tajribali shoir, uning hamma yozgan she’rlarini maqtasa bo‘laveradi, uni tanqid qilish shart emas, degan fikrdan yiroq turadi. Chunki uning talabchanligi, adabiyotga fidoyiligi bunga yo‘l bermaydi. Zaif she’rlarining zaif tomonini, yaxshi she’rlarining maqtashga arziydigan jihatini to‘g‘ri tahlil qilib beradi. Munaqqid faqat tanqidchi yoki o‘quvchi sifatida emas, adabiyotshunos olim sifatida ham she’rlarning poetik jihatiga e’tiborni qaratadi.

“Jahongir va sartarosh” asarida esa lirik qahramonninggina emas, balki Amir Temurning hamda sartaroshning jonli qiyofasini, o‘ylari, kechinmalarini butun vujudingiz bilan his qildiradigan konkret poetik mazmun kashf etilgan: O‘tror yaqinida askarlarning dushmanlar bilan olishuvdan, janglardan emas, qattiq sovuqdan halok bo‘lish xavfi tug‘iladi, ana shunda Temur “niliy shohi ko‘ylak kiygan” holda yalanglikka chiqib, sartaroshga sochini oldirishga qaror qiladi va bu bilan har qanday izg‘irinni yengish mumkinligini isbotlashga kirishadi. Jahongirning mana shu holati lo‘nda, aniq qilib chizilgan:” [4.187]

“O‘ltirar beparvo

Mag‘rur, ulug‘vor.

Ko‘kraklar ochiq xuddi yoz mahal.

Na titroq, na hatto kiprik qoqmoq bor,

Bamisoli misdan yasalgan haykal...” [6.25]

Erkin Vohidov she’rlarining tahlili jarayonida asar qahramonlarning holati, xarakteriga ham e’tibor beradi. Yoki shoir tanlagan obrazlar hayot haqiqatiga mos tushadimi, tushmaydimi, bo‘lishi mumkinmi, mumkin emasmi – hamma-hammasini e’tibordan qoldirmaydi. Va munaqqid o‘z uslubiga ko‘ra shunday izoh beradi:

“Qarang-a, butun dunyoni titratgan jahongirni oddiy bir sartarosh daf qiladi! Tabiiyki, bunday hodisaning real hayotda ro‘y berishi amrimaholdir. Shuning uchun Erkin Vohidov she’riy hikoyani rivoyat deb ataydi. Lekin rivoyat ham o‘quvchini ishontiradigan darajada hayotiy mazmun kasb etishi kerakmasmi?!..” [4.187]

Shoirning “Kamtarlik haqida” she’rida ham shunday fikr-xulosalarni bayon qilish mumkinki, bu she’rda insonning kamtarligini ramziy ma’noda choynakning egilib choy quyishini, manmanlik vaqtinchalik kibor ekanligini uqtirmoqchi bo‘lgan. Lekin nima bo‘lganda ham Erkin Vohidov she’rlari o‘z o‘quvchilarini yo‘qotgani yo‘q. O‘quvchi asarni o‘z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda o‘z fikri bilan talqin etadi. Munaqqidlar esa bu she’rni ham o‘quvchi-kitobxon fikri bilan, ham munaqqid fikri bilan, ham adabiyotshunos fikri bilan talqin

etadi. Erkin Vohidov she’rlaridagi ravonlikni, soddalikni va mazmun jihatdan mukammallikni ta’minlaydigan jihatlari anchagina. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir shoirning o‘z uslubi, g‘oyasi bo‘ladi. Erkin Vohidov she’rlarida insoniylik, ezgulik, kamtarlik kabi fazilatlar yetakchi o‘rinda turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin_Vohidov
2. Худойберганов Н. Сўз курашга чорлайди. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1978.
3. Воҳидов Э. Келажакка мактуб. Шеърлар. – Т.: Ёш гвардия, 1983.
4. Худойберганов Н. Ўсиш-ўзгариш қийинчиликлари. Шарқ юлдузи журнали, 1984 йил 4-сон.
5. Худойберганов Н. Чўққилар чорлайди (Социалистик реализм. Замонавийлик. Маҳорат). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1975.
6. Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма.1-жилд. – Т.: Шарқ, 2000.
7. Воҳидов Э. Ҳозирги ёшлар. Шеърлар ва достон. – Т.: Ёш гвардия, 1975.